

Jahon kimyo sanoati xabarlari: tabiiy kauchuk narxi qimmatlashishi muqobil sintetik mahsulotlarga talab ortishiga olib kelishi mumkin

// 30.10.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-xabarlari-tabiiy-kauchuk-narxi-qimmatlas>



Tabiiy kauchuk narxi qimmatlashishi muqobil sintetik mahsulotlarga talab ortishiga olib kelishi mumkin

Singapur va Tokio xom-ashyo birjalarida tabiiy kauchuk fyucherslari bir tonna uchun 2 ming dollardan oshdi. Bu 2019-yil iyulidan beri eng yuqori ko'rsatkichdir. Narxlarning bunday ko'tarilishining asosiy sabablari sifatida Tinch okeani yuzasining isishi fonida ob-havoga ta'sir qiluvchi El-Ninyo iqlim hodisasi hamda talab va taklifning umumiy nomutanosibligi ko'rsatilmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, tabiiy xom-ashyoning qimmatlashishi sintetik kauchukka nisbatan talab o'sishi ehtimolini oshiradi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati